

UO‘T:634.12.632

**SURXONDARYO VILOYATINING SUBTROPİK IQLIMLI HUDUDLARI
SHAROITIDA PEKAN YONG‘OG‘INI YETISHTIRISH**

Qo‘chqorov Astonaqul Musurmonqulovich

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion
rivojlanish instituti kafedra mudiri, b.f.n

E-mail: aquchqorov1962@mail.ru

Shaykulov To‘ra Xayitovich

Qiziriq (Bandixon) agrotexnologiyalar texnikumi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada amaliy loyiha doirasida Surxondaryo viloyatining subtropik iqlimli hududlari sharoitida pekan yong‘og‘ini yetishtirishni o‘rganish natijalari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

***Kalit so‘zlar:** Pekan, yong‘oqmevali, nav, namuna, shakllari, otalik va onalik gullar, yong‘oqmeva sifati, zararkunanda va kasallik, hosildorlik, taqqoslash, variantlar, chidamlilik.*

УДК:634.12.632

**ВЫРАЩИВАНИЕ ПЕКАНОВОГО ОРЕХА В УСЛОВИЯХ
ТЕРРИТОРИЙ СУБТРОПИЧЕСКОГО КЛИМАТА
СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ**

Кучкоров Астонакул Мусурмонкулович

Термезский институт агротехнологий и
инновационного развития, зав. кафедрой, к.б.н

E-mail: aquchqorov1962@mail.ru

Шайкулов Тура Хайитович

Кизирикский (Бандиханский)
агротехнологический техникум, преподаватель

АННОТАЦИЯ

В данной статье приведены данные о результатах изучения pekanового ореха для выращивания в условиях территорий субтропического климата Сурхандарьинской области в рамках прикладного проекта.

Ключевые слова: Пекан, орехоплодный, сорт, образцы, формы, отцовские и маточные цветы, качество орехоплода, вредители и болезни, урожайность, сравнения, варианты, устойчивость

UDS:634.12.632

CULTIVATION OF PECAN NUT IN SUBTROPICAL CLIMATE AREAS OF SURKHANDARYA REGION

Kuchkorov Astonakul Musurmonkulovich

Termez Institute of Agricultural Technologies and Innovative
Development, head of department, Ph.D.

E-mail: aquchqorov1962@mail.ru

Tura Xayitovich Shaykulov

Kizirik (Bandikhan) Agrotechnological college, teacher

ANNOTATION

This article presents the results of the sampling of pecan nuts for cultivation in the mountainous and foothill areas of the Surkhandarya region as part of the pilot project.

Key words: *pecan, nuts, variety, sample forms, paternity and maternity flowers, nut quality, pests and diseases, yield, comparison, variation tolerance.*

Kirish. Ma'lumki, butun jahonda oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash o'ta dolzarb masala sifatida jiddiy tus olmoqda. Shu jihatdan dunyo mamlakatlarida pekan yong'og'iga bo'lgan qiziqish tobora kuchaymoqda. Bunga asosiy sabab uning insonlarda ko'payib borayotgan yurak-ishemik, qon-tomir, asab, qandli diabet, respirator va ko'z kasalliklariga qarshi shifobaxshligi, kuchli immunizator ekanligi, yuqori energetik quvvat va muhim ekologik ahamiyatga egaligidir.

Prezidentimizning 2017 yil 4 martdagi 119-sonli va 2017 yil 1 iyundagi "Yong'oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari qabul qilindi. Mazkur qarorlarda respublikamizning tog' va tog' oldi hududlarida yong'oqchilikni rivojlantirish, yong'oq mevalilar maydonini kengaytirish hamda ularni hududlarning tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda oqilona joylashtirish, yong'oqchilik bo'yicha ilmiy bazani mustahkamlash, yangi istiqbolli va serhosil navlarni joriy etish, shuningdek yong'oq mahsulotlarini yetishtirish hajmini ko'paytirish va eksport salohiyatini oshirish borasidagi vazifalar va topshiriqlar belgilab berilgan.

Shu bois janubiy Surxondaryo viloyatining o'ziga xos subtropik iqlimi sharoitida bu yong'oqmevali o'simlikni loyiha doirasida ilmiy va amaliy jihatdan o'rganish shu kunning dolzarb masalalaridan biri sifatida rejalashtirildi.

Qayd etish lozimki, viloyatning iqlimi keskin o'zgaruvchan (kontinental) bo'lib shimoliy tog'li va tog' oldi xududlari subtropik iqlimga ega bo'lib, janubiy hududlardan tubdan farq qiladi. Respublikamizning janubiy Surxondaryo viloyatining subtropik iqlim sharoiti turli xil mevali ekinlar, shu jumladan ko'p yillik yong'oqmevalilarni, xususan pekan yong'og'ini yetishtirish uchun qulay hudud bo'lib hisoblanadi.

Shu nuqtai-nazardan kelib chiqqan holda ilmiy tadqiqotlar "Vegetativ yo'l bilan ko'payuvchi ekinlarning (mevali, rezavor, yong'oqmevali, tut, sitrusli, o'rmon, manzarali, subtropik va noan'anaviy) elita ko'chat materiallarini ko'paytirishni takomillashtirish" nomli 134-raqamli davlat ilmiy-texnik dasturi (IDT-134) doirasida "BV-8-2018-437- Surxondaryo viloyatining tog' va tog' oldi hududlari uchun pekan yong'og'ining nav namunalariin tanlash hamda ko'chatlarini etishtirish agrotexnologiyasini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyiha bo'yicha olib borildi.

Tadqiqotning ob'ekti. Tadqiqotning asosiy ob'ekti pekan yong'og'ining mavjud 10 ta shakllari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti sifatida pekan yong'og'ining nav shakllarini Surxondaryo viloyatining subtropik iqlimli hududlari sharoitida yetishtirish uchun tanlab olish bo'lib xizmat qildi.

Ishning maqsadi - Akademik Maxmud Mirzaev nomli bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining Surxondaryo ilmiy-tajriba stansiyasining Markaziy Osiyoda yagona "Dendrariy" bog'ida yong'oq mevalilardan pekanning 10 ta formalari (shakllari) mavjud bo'lib, ular ustida hamkorlikda ilmiy tadqiqot ishlari olib borish va mavjud nav namunalariin viloyatimizning subtropik iqlimli hududlari sharoitida yetishtirish uchun tanlab olishdir.

Tadqiqotning usubiyati. Tadqiqotlarda fenologik kuzatuvlar asosan “Mevali, rezavor mevali va yong‘oq mevalilar navlarini o‘rganish usuli va dasturi” (Michurinsk,1973) xamda X.Ch.Bo‘riev va boshqalar muallifligidagi “Mevali va rezavor - mevali o‘simliklar bilan tajribalar o‘tkazishda xisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi (uslubiy qo‘llanma,Toshkent,2014)”{1;36-b} hamda “Mevali, rezavor mevali va yong‘oq mevalilar navlarini o‘rganish usuli va dasturi” (Michurinsk,1973)ga{2;54-b} ko‘ra amalga oshirildi.

Ilmiy yangiligi. Amaliy loyiha bo‘yicha tajriba yillari davomida pekan yong‘og‘ining mavjud nav namunalari (shakllari) Surxondaryo viloyatining subtropik iqlimli hududlari sharoitida yetishtirish uchun o‘rganildi, ularning bioekologik, agrotexnologik va hosildorlik ko‘rsatkichlari aniqlandi, ekologik muhitga bardoshli, serhosil, zararkunanda va kasalliklarga chidamlilari tanlab olindi.

Amaliy ahamiyati. Tadqiqotlarning natijalari asosida tanlab olingan pekan yong‘og‘i nav shakllarini amaliyotda yetishtirish uchun tatbiq etiladi. Kelgusida Respublikamiz aholisi ekologik toza yuqori sifatli shifobaxsh yong‘oq mahsulotlari bilan ta‘minlanadi va bu esa o‘z o‘rnida istiqbolda viloyatning eksport salohiyatini oshirish uchun xizmat qiladi.

Tadqiqotning natijasi. Tadqiqot qilinayotgan pekan yong‘og‘i (Carya olivaformis Nutt. C. Pekan) yong‘oqdoshlar oilasi, kariya turkumiga mansub yong‘oqmevali daraxtdir. Pekan grek yong‘og‘iga yaqin bo‘lib, vatani Shimoliy Amerika. U yerda yetishtirilayotgan pekan yong‘oqlari ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lib, 150 ming gektar maydonlarni egallagan. U tez o‘sovchi daraxt bo‘lib, vegetasiya davrining boshlanishida dastlabki 2-3 yilda 50 smdan 1metrgacha, so‘ngra 10-15 yilda 7-10 metrgacha, keyinchalik esa 20 metrdan 30-36 metrga o‘sadi. Pekan yong‘og‘i grek yong‘og‘idan vegetasiya davrining uzunligi bilan ham farq qiladi. Grek yong‘og‘ining vegetasiya davri 150-160 kunni tashkil etsa, pekan yong‘og‘ining vegetasiya davri 190-200 kunni tashkil etadi. Pekan yong‘og‘i mevasining pishishi esa oktyabr oyining 2-dekadasiga to‘g‘ri keladi.

M.Rovskiyning (1954) ma'lumotlariga qaraganda pekan yong'og'i zararkunandalar va kasalliklar bilan zararlanmaydi {2;63-b}. Bizning tadqiqotlarimizda ham pekan yong'og'i zararkunandalar va kasalliklarga qarshi chidamli ekanligini ko'rsatdi.

A.Qo'chqorov va A.Mirzayevlarning (2019) ma'lumotlariga ko'ra pekan yong'og'i Surhondaryo viloyatining subtropik iqlimi uchun mos ekin deb hisoblanadi. Pekan yong'og'i Surxondaryo viloyatining shimoliy qismi, ya'ni subtropik hududida iqlimning global isishi sharoitida ham baravj o'sib rivojlanadigan va ko'zlangan yuqori sifatli ekologik toza hosil beradigan istiqbolli eksportbop yong'oqmevali o'simlikdir.

Tadqiqotlar davomida pekan yong'og'ining ekish sxemalari bo'yicha o'rtacha hosildorligi aniqlandi va olingan ma'lumotlar 1-nchi jadvalda aks ettirildi.

Pekan yong'og'ining o'rtacha hosildorligi, ga/s.

1-jadval

Shakl (forma)lar	Ekish sxemasi, m	1 tupdan, kg	Gektariga, ts
1-shakl (qiyosiy)	10x10	85.0	85.0
2-shakl	10x8	60.0	72.5
3-shakl	10x10	80.0	80.0
4-shakl	10x10	73.0	73.0
5-shakl	8x8	36.0	56.1
6-shakl	10x8	45.0	56.2
7-shakl	8x8	35.0	54.6
8-shakl	10x10	65.0	65.0
9-shakl	8x8	41.0	63.9
10-shakl	10x10	58.0	58.0

1-Jadvaldagi ma'lumotlarga qaraganda yuqori hosildorlik 10 x10 m sxemada ekilgan №1 (qiyosiy) – 85 ts , №3 – 80 ts, va №4 –73 ts, raqamli shakllarda yaqqol kuzatildi. Ushbu 3 ta nav shakllarini hosildorligi jihatidan nisbatan eng samarali deb tanlab olib tavsiya etish mumkin.

Ushbu yong'oqmevali ekinni viloyatning subtropik iqlimi sharoitida, ya'ni Denov, Oltinsoy, Sariosiyo, Uzun va Boysun tumanlari sharoitida keng miqyosda atroflicha o'rganish va undan ekologik toza yuqori sifatli mo'l hosil olishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda viloyatimizning shimoliy subtropik iqlimli tumanlarida pekan yong'og'idan yuqori sifatli ekologik toza hosil yetishtirish imkoniyatlari yetarli bo'lib uning serhosil nav shakllarini shu xududning tabiiy tuproq-iqlim sharoitida o'rganish bo'yicha tadqiqotlar davom ettiriladi va shu sharoit uchun mos adaptiv shakllar tanlanadi hamda ularning ko'chatlarini parvarishlash agrotexnologiyasi tavsiya etiladi. Bu esa o'z navbatida hozirgi paytda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash nuqtai-nazaridan ichki va tashqi bozorda xaridorbop hamda eksportbop ekologik toza, kasallik va zararkunandalar bilan zararlanmaydigan tabiiy pekan yong'og'i mevalari yetishtirish uchun barcha shart-sharoitlar mavjudligini ko'rsatib turibdi. Dunyo olimlari tomonidan bugungi kunda pekan yong'og'i o'zining dorivorligi va shifobaxshligi xususiyatlari jihatidan istiqbolli yong'oqmevali o'simlik deb e'tirof etilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Bo‘riev X.Ch va boshqalar. Mevali va rezavor - mevali o‘simliklar bilan tajribalar o‘tkazishda xisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi (uslubiy qo‘llanma).-Toshkent.-ToshDAU nashriyoti.-2014.-36 bet.

2.Rovskiy M. “Grek yong‘og‘i va pekan”. Toshkent-“Mehnat”. -1954.- 63 bet.

3.Программа и методика сортоизучения плодовых, ягодных и орехоплодных культур. –Мичуринск.-1973.- 54 bet.

4. Qo‘chqorov A.M, Mirzayev A.E. Pekan yong‘og‘ining o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligi.//Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy – tadqiqot institutining “Bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilikni ustiqbolli rivojlantirishda innovatsion agrotexnologiyalarning ahamiyati” mavzusidagi respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-texnik anjumani maqolalari to‘plami. – Toshkent.-BUVITI nashriyoti. – 2019 yil 26-sentabr.-142-145 betlar.